

## MOLIYA-SANOAT GURUHLARI ORQALI TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Abduvaliyev Sanjar Abdurahmanovich**

**Tashkent international university mustaqil izlanuvchi**

**s.abduvaliev@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19733482>**

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoitda integratsiyalashgan tuzilmalar, xususan moliya-sanoat guruhleri (MSG)ni shakllantirish va ularning samarali faoliyatini ta'minlash sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday tuzilmalar ishlab chiqarish va moliya kapitalining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanib, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bank va sanoat kapitalini birlashtiruvchi moliya-sanoat guruhlarining roli ortib bormoqda.

Moliya-sanoat guruhleri doirasida tijorat banklari va sanoat korxonalari o'rtasidagi uzviy hamkorlik iqtisodiy rivojlangan davlatlarda zamonaviy ishlab chiqarish tizimining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu integratsiya natijasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, texnologik yangilanishlarni joriy etish hamda moliyaviy resurslarni real sektor ehtiyojlariga yo'naltirish imkoniyati kengayadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bank kapitali ishtirokidagi moliya-sanoat guruhleri iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi samarali institut sifatida faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, moliya-sanoat guruhleri faoliyatida banklarning moliyaviy menejmenti muhim o'rin tutadi. Samarali boshqaruv tizimi investitsiya oqimlarini optimallashtirish, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda banklar tomonidan malakali mutaxassislar ishtirokida moliyaviy tahlil va rejalashtirish jarayonlari amalga oshirilib, guruhning strategik maqsadlari izchil qo'llab-quvvatlanadi.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi banklarining jami kapitali hajmida ayrim tijorat banklarining ulushi<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
«O'zsanoatqurilishbank»	10,9	9,8	9	9	9
«O'zmilliybank»	20,8	20,6	18,4	16	15
«Asaka» bank	9,2	8,2	6,9	7	6
«Agrobank»	13,2	11,9	12,7	11	10
«Biznesni rivojlantirish banki»	3,8	3,7	3,3	4	4
«Xalq banki»	7,7	6,7	6,1	7	8
Boshqa tijorat banklari	34,4	39,1	43,6	46	48
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Mamlakatimiz tijorat banklari jami kapitali tarkibida "O'zmilliybank", "O'zsanoatqurilishbank", "Asaka" bank, "Agrobank", "Biznesni rivojlantirish banki" hamda

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

“Xalq banki” kabi yirik banklar sezilarli ulushni egallab kelmoqda. 2021-yil yakunlariga ko‘ra, ushbu oltita bankning jami bank tizimi kapitalidagi ulushi 65,6 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu ularning moliya tizimidagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Mazkur holat asosida yuqorida qayd etilgan banklar ishtirokida sanoat korxonalarini bilan integratsiyalashgan moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish imkoniyatlari yuqori ekanligini ta’kidlash mumkin. Chunki ushbu banklar allaqachon real sektor korxonalarini bilan faol hamkorlik qilib, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Moliya-sanoat guruhlarining shakllanishi bank va sanoat kapitali o‘rtasidagi integratsiyani yanada chuqurlashtirib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytiradi hamda iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bank-moliya institutlari va sanoat korxonalarini o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning kuchayishi investitsion ehtiyojlarni qondirishga qulay shart-sharoit yaratadi, shuningdek, iqtisodiyotga jalb etilayotgan ichki va tashqi investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Natijada moliya-sanoat guruhlarini investorlarga nisbatan ishonchli va barqaror iqtisodiy hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, tijorat banklari ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishda bank tizimining moliyaviy barqarorligi, kapitallashuv darajasi hamda banklarning korxonalar bilan investitsion va kredit munosabatlaridagi ishtiroki muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish moliya-sanoat guruhlarining samarali faoliyatini ta’minlash, risklarni boshqarish hamda uzoq muddatli investitsion barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-jadval

**Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari tarkibi va dinamikasi (mlrd. so‘m)<sup>2</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
Tijorat banklarining iqtisodiyot real sektoriga kredit qo‘yilmalari	326386	390 049	471 406	533 121	595 309
Milliy bank	74033	89 410	99 423	108 014	104 878
Asaka bank	37685	36 742	39 213	38 717	41 981
O‘zsanoatqurilishbank	43148	48 076	57 124	65 498	64 937
Agrobank	32258	43 846	54 483	59 436	80 403
Biznesni rivojlantirish banki	17496	20 292	21 801	22 527	24 445
Ipoteka bank	29046	32 658	37 264	35 094	34 407
<b>Tijorat banklarining umumiy kredit qo‘yilmalardagi ulushi (foiz hisobida)</b>					
Milliy bank	22,7	22,9	21,1	20,3	17,6
Asaka bank	11,5	9,4	8,3	7,3	7,1
O‘zsanoatqurilishbank	13,2	12,3	12,1	12,3	10,9
Agrobank	9,9	11,2	11,6	11,1	13,5
Biznesni rivojlantirish banki	5,4	5,2	4,6	4,2	4,1
Ipoteka bank	8,9	8,4	7,9	6,6	5,8

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

<b>Jami</b>	<b>71,6</b>	<b>69,5</b>	<b>65,6</b>	<b>61,8</b>	<b>59,0</b>
-------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kredit qo'yilmalarida mamlakatimizning yetakchi banklari — "O'zmilliybank", "O'zsanoatqurilishbank", "Asaka" bank, "Agrobank", "Biznesni rivojlantirish banki" hamda "Ipoteka bank" muhim o'rin egallaydi. 2025-yil yakuni bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, jami kredit qo'yilmalarida TIF Milliy bankining ulushi 17,6 foizni, "Agrobank" 13,5 foizni, "O'zsanoatqurilishbank" 10,9 foizni, "Asaka" bank 7,1 foizni, "Ipoteka bank" 5,8 foizni hamda "Biznesni rivojlantirish banki" 4,1 foizni tashkil etgan. Natijada ushbu banklar hissasiga iqtisodiyot real sektoriga yo'naltirilgan jami kreditlarning 59 foizi to'g'ri kelgan bo'lib, qolgan qismi boshqa tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan. So'nggi yillarda mazkur ulushning biroz pasayish tendensiyasi kuzatilayotgani banklar o'rtasida raqobat muhitining kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliya-sanoat guruhlarini tarkibida muhim ishtirokchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular o'zining moliyaviy imkoniyatlari va resurs bazasi orqali yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol rol o'ynashi, sanoat korxonalarini bilan integratsiyalashgan tuzilmalarni rivojlantirishga hissa qo'shishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliya-sanoat guruhlarini faoliyatiga keng jalb etish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Umuman olganda, tijorat banklarining moliya-sanoat guruhlarini tarkibidagi ishtiroki real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda kredit va investitsiya risklarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank va sanoat kapitalining integratsiyasi esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining izchil davom etishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Зарипов И.А. Инвестиционный механизм финансово-промышленных групп России. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. - 2004. - С. 23.
2. Ataniyazov J.X. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlar. Monografiya. - T.: Tafakkur qanoti. 2017. - 144 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
4. Ataniyazov J.X. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlar. Monografiya. - T.: Tafakkur qanoti. 2017. - 144 b.
5. Павлов, Д. А. Перспективы развития финансово-промышленных групп / Д. А. Павлов. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2021. - № 28 (370). - С. 114-117.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.